

“Yosh buxoroliklar”ning Buxoro islohot loyihasi

Magistrant: Xidirov A.

XX asr boshlariga kelib butun Turkiston va Chor Rossiyasida bo'lganidek Buxoroda ham ijtimoiy xalq harakatlari yangicha va kuchli bosqichga ko'tarildi. Buning asosiy sabablari XX asrga kelib ham amirlik aholisining katta qismi qashshoqlikda kun kechirar, dehqonchilik ahvoli og'ir, hunarmandlar Rossiya tovarlari raqobatiga dosh bera olmay xonavayron bo'lgan va mavjud bo'lgan kam sonli zavod va fabrikalarda mehnat sharoitlari nihoyatda qiyin va ish haqi past edi. Shu sababli halq ongida norozilik kayfiyati nihoyatda kuchayib bordi. Buning natijasida Rossiyadagi bolsheviklar va Turkistonda keng yoyilgan jadidchilar harakati ta'sirida “Yosh buxoroliklar” tashkiloti tashkil topdi.

1916-yil yosh turklarning “Birlik va taraqqiyot” partiyasi namunasi asosida jadidlar o'zlarini “Yosh buxoroliklar” va ‘Yosh xivaliklar’ deb atay boshladilar¹. 1916-1917-yillar oralig'ida yashirin “Yosh buxoroliklar” partiyasi va uning 12 kishilik Markaziy qo'mitasi tashkil topdi. “Yosh buxoroliklar” partiyasining Markaziy qo'mitasi raisi Abduvohid Burxonov, kotibi Usmon Xo'jayev (Usmonxo'ja Po'latxo'jayev), xazinadori Muso Saidjonov edi.² ulardan tashqari ushbu partiya vakillari orasida Abdurauf Fitrat, Ota Xo'jayev, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev kabi ilg'or ziyolilar ham bor edi.

Yangi tuzilgan partiya Rossiyadagi yangi hukumatga tabrik telegrammasi jo'natadi va Sovet Rossiyasi bilan “Yosh buxoroliklar” o'rtasida munosabat o'rnatadi. Bunday madadga ega bo'lgan “Yosh buxoroliklar” Buxoro amiri Said Olimxonga islohotlar o'tkazishni talab qila boshlaydilar.

1917-yildan boshlab Fayzulla Xo'jayev va Abdurauf Fitrat “Yosh buxoroliklar”dan ajralib chiqqan “so'l qanot”ga boshchilik qilishdi. Ular avval

¹ O'zbekistonning yangi tarixi ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T.: “Sharq” 2000, 113-b

² N.Jo'rayev Sh.Karimov. O'zbekiston tarixi. T.: “Sharq” 2011, 215-b

konstitutsion monarxiya, so'ngra demokratik respublika tuzish uchun kurashdilar³. Dastlab "Yosh buxoroliklar" konstitutsion monarxiya talab qilib chiqishib "Buxoro islohot loyihasi" deb nomlangan xujjat tayyorlashdi. Ushbu loyihani ikki oy davomida partiya yetakchisi Abdurauf Fitrat yozgan va partiyada ko'rib chiqilib o'zgina tuzatishlar bilan qabul qilinadi.

"Buxoro islohot loyihasi" jami 13 ta banddan iborat holda tuzilib, quyidagicha nomlangan: yer-suv masalalari, vaqf yerlari, dohiliy ishlar, shar'iy mahkamalar, zabtiya ishlari, yo'llar va ma'danlar, horijiy ishlar, maorif ishlari, baladiy majlislari va tergov etmak ishlari.

Ushbu loyihaning katta qismi yer-suv masalalariga qaratilgan. Unga ko'ra amirlik hududidagi haydaladigan yerlar uch qismga bo'lingan: vaqf yerlari; soliqdan ozod qilingan yerlar; soliq olinadigan mulki xiroj yerlari. Loyihada hammani ekin ekishga majbur qilish maqsadida barcha ekilgan va ekish mumkin bo'lib ekilmay qolgan yerlarga ham soliq solish nazarda tutilgan. Loyihada yana davlat yerlari, bog' va binolarga ishlov berish uchun hashar chaqirish, umuman aholi mehnatidan tekin foydalanish ham man etildi. Hashar yo'li bilan faqat suv inshootlari qurish, kanallar qazish, umuman irrigatsiya ishlari amalga oshirish mumkin bo'ldi⁴. Amudaryodan suv chiqarish, yangi texnologiyalarni olib kirish masalasi ham chetda qolmadi

Askarlik masalasiga e'tibor berilib shunday deyiladi: "shahzoda va tahsili ilm qilaturg'onlardan boshqa butun Buxoro xonlig'idagi kishilardan 22 yoshindagilarni askarlikka choqursun. Shunday qilg'onda ko'p kishi yig'iladur"⁵. Ularning muddati ikki yil bo'lishi ko'zda tutilgan. Shuningdek moliya sohasida amirning mablag'lari umumdavlat mablag'idan ajratilishi, soliqlar aniq belgilanishi, davlat budjeti har yili e'lon qilib turilishi ko'rsatildi. Uning ta'siri o'laroq, 1917-yil martda "Yosh buxoroliklar"ning tazyiqi ostida amir Said Olimxon amirlik

³ Sh.Ergashev, T.Bobomatov, Yigirmanchi asr: taqdirlarda aks etgan tarix. T.: O'zbekiston. 2013, 417-b

⁴ N.Jo'rayev Sh.Karimov, O'zbekiston tarixi. T.: "Sharq" 2011, 215-216-b

⁵ R.Boytullayev, G.Ostonova. Moziy daftaridan sahifalar T.: O'zbekiston 2010, 225-b

ma'muriyati amirlikning davlat xazinasidan alohida bo'lishini, amaldorlarga qat'iy maosh belgilashni ko'zda tutuvchi manifest e'lon qildi⁶.

Maorif sohasidagi davlat mablag'i hisobiga maktab, oliy o'quv yurtlari ochish, zamonaviy o'quv qo'llanma, dasturlar, o'qituvchilar bilan taminlash va o'quv yurtini bitirganlarga diplom berishni ham belgilab qo'ydi. Islohot loyihasida ma'muriy-hududiy bo'linishga ham e'tibor berilib shunday deyiladi: "mamlakatning dohiliy ishlarini idora etmak uchun bir "dohiliya vaziri" ta'in bo'lsun. mamlakatni tartibli bir sur'atda taqsim etsun. Masalan: Buxoro xonlig'i uch qo'rg'ongsa bo'linsun. Har qo'rg'onga bir qo'rg'onbegi qo'yilsun, har qo'rg'onbegilik o'n elbegilikg'a taqsim qilinib, har birinda bir elbegi qo'yulsin. Har elbegilik o'n tomong'a taqsim etilib, har birinda bir tumanbegi qo'yulsin."⁷.

Yo'llarni tuzatish asfalt yo'llar va temir yo'llar qurish, shuningdek temir, oltin, neft, toshko'mir va boshqa konlarni topib mamlakat rivoji uchun foydalanish ko'zda tutildi. Tinchlikni saqlash, mirshablar vazifalarini kuchaytirish, tergov qilish ishlarini ham isloh qilish masalalari belgilab berildi.

Umuman olganda "Buxoro islohot loyihasi" davlatning barcha sohalarini qamrab oldi. Shu asosda o'nta vazirlik tuzilishi ko'rsatilgan. Bular: yer ishlari, vaqflar vaziri, harbiy vazir, moliya vaziri, xorijiy vaziri, yo'llar va ma'danlar vaziri, ma'orif vaziri, zabtiya (militsiya) vaziri, adliya vaziri va dohiliya (ma'muriy boshqaruv) vazirliklaridir. Vazirliklar orasida xorijiy (tashqi ishlar) vazirligi yuqori ko'rilib, "shul xorijiy vaziri butun vazirlarning biyuki raisi bo'lsun"⁸ deyiladi.

Mana shular asosida Nozirlar Kengashi tashkil etilishi kerak edi. Bu nozirlar faoliyatini kuzatuvchi yigirma kishilik maxsus Nazorat Komissiyasi tashkil etilishi ham nazarda tutildi.

⁶ O'zbekiston xalqlari tarixi 2-jild T.: 1990, 242-b

⁷ R.Boyutullayev, G.Ostonova. Moziy daftaridan sahifalar T.: o'zbekiston 2010, 227-b

⁸ O'sha asarda 228-b

Yuqorida ko'rsatilgan ushbu masalalar o'sha paytda hal qilinishi amri mahol bo'lsada, amirga tavsiya etishning o'zi katta tarixiy ahamiyatga molikdir. Islohotdan kutilgan maqsad amirning yakka hukmronligini Yevropacha konstitutsion monarxiya bilan almashtirish, maorif va madaniyat, ishlab chiqarish va sanoatni rivojlantirish, ilm fan va texnikani taraqqiy ettirishdan iborat bo'ldi. Ammo hujjatdagi islohotlar o'z vaqtida amalga oshirilmadi va u tarix qatlarida qolib ketdi. Shunday bo'lsada ko'p ming yillik davlatchilik tariximizning navbatdagi taraqqiyot bosqichi haqidagi muhim qarashlarni mujassamlashtirgan hujjat sifatida yetib keldi. Uni har tomonlama o'rganish tarixchilarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.